BOLALARDA OILAVIY MUNOSABATLARNING SHAKLLANISHI

Eshqulov Sh.R.,
Guldu doktoronti
O‘rolova M.,
GDPI talabasi

Annotatsiya Maqolada zamonaviy ta'lim tizimida qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik va tajribalarning nazariy va amaliy asoslari kompleks tahlil qilingan. shaxsga yo'naltirilgan, konstruktiv, ko'p intellektual, emotsional-intellektual va metakognitiv kognitiv shaxslarning o'quvchilarning o'z faoliyatini, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri yoritilgan. , xavfsizlik tizimi va masofaviy ta'lim tizimidagi laboratoriyalarning qo'llab-quvvatlash, o'ning yangi roli va metodik boshqaruvchi tahlil qilinadi. Maqola shifokorlariga ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning shaxsiy kompetensiyalarini yaxshilashga xizmat ko'rsatish samarali bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: Bola, oilaviy muhit, jamoatchilik, "Men"-obrazi, tizimli hamkorlik, ota-ona, pedagogik savodxonligini, tarbiya, o‘zaro ishonch, umuminsoniy qadriyatlar, asosiy poydevor, umumiy majlis.

Annotation The article provides a comprehensive analysis of the theoretical and practical foundations of advanced pedagogical practices and methods used in the modern education system. The influence of personality-oriented, constructive, multi-intellectual, emotional-intellectual and metacognitive cognitive qualities of the individual on self-efficacy, emotional and social development of students is emphasized. The security and laboratory support system in the distance education system, its new role and methodological guidance are analyzed. The article provides practical recommendations for doctors on the effective provision of services to improve the quality of education and improve the personal competencies of students.

Keywords: Child, family environment, community, self-image, systemic cooperation, parents, pedagogical literacy, education, mutual trust, universal values, basic foundation, general meeting

Bola shaxsining shakllanishida oila muhim o‘rin tutadi. Oila — bu bola uchun birinchi ijtimoiy muhit bo‘lib, u yerda bola dunyoni tanish, muloqot qilish, axloqiy me’yorlarni o‘rganishni boshlaydi. Oilaviy munosabatlar bola ruhiyati va ijtimoiy rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bola qanday oilaviy muhitda voyaga etsa, uning xarakteri, xulq-atvori va jamiyatga bo‘lgan munosabati ham shunga yarasha shakllanadi.Birinchi navbatda, oiladagi mehr, e’tibor va o‘zaro hurmat bolani o‘zini qadrlangan, sevilgan shaxs sifatida his qilishiga yordam beradi. Agar bola mehr-muhabbatli, iliq muhitda voyaga yetsa, u o‘zini erkin tutadi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi yuqori bo‘ladi. Aksincha, e’tibordan chetda qolgan, doimiy ziddiyatlar hukmron bo‘lgan oilalarda o‘sayotgan bolalarda ruhiy beqarorlik, ishonchsizlik va tajovuzkorlik kabi holatlar kuzatilishi mumkin.Ota-onaning bola tarbiyasidagi ishtiroki ham nihoyatda muhim. Ota va ona o‘rtasidagi uyg‘unlik, farzandga nisbatan yagona tarbiya uslubining mavjudligi bola uchun psixologik barqarorlik yaratadi. Shuningdek, ota-onaning har biri o‘z rolini to‘g‘ri bajarishi – ya’ni, mehribonlik va intizomni uyg‘unlashtirishi – bola shaxsiyati shakllanishida muhim ahamiyatga

ega.Oilaviy muhit – bu bolaning jamiyatga moslashishidagi ilk maktabidir. U yerda bola o‘z fikrini qanday bildirishni, boshqalarni tinglashni, hurmat qilishni o‘rganadi. Oilada shakllangan muloqot madaniyati, axloqiy me’yorlar va ijtimoiy qoidalar bolaning keyingi hayotida asosiy yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qiladi.

Oilaviy tizimda «Men» - obrazining ijtimoiy psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganligining muhim omillaridan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, tarbiya shaxsning o'zi va o'z sifatlari to'g'risidagi tasavvurlarining shakllanishi jarayonidir, deb ta'rif berish mumkin. Demak, har bir inson o'zini, o'zligini qanchalik aniq va to'g'ri bilsa, tasavvur qilolsa, uning jami yat normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kam bo'ladi, ya'ni u tarbiyalangan bo'ladi. O'z-o'zini anglash, o'zidagi mavjud sifatlarni baholash jarayoni ko'pincha konkret shaxs tomonidan og'ir kechadi, ya'ni inson tabiati shundayki, u o'zidagi o'sha jamiyat normalariga to'g'ri kelmaydigan, no'maqul sifatlarni anglamaslikka, ularni «yashirishga» harakat qiladi, hattoki, bunday tasavvur va bilimlar ongsizlik sohasiga siqib chiqariladi. Bu ataylab qilinadigan ish bo'lmay, u har bir shaxsdagi o'z shaxsiyatini o'ziga xos himoya qilish mexanizmidir. Bunday himoya mexanizmi shaxsni ko'pincha turli xil yomon asoratlardan, hissiy kechinmalardan asraydi. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, «Men» - obrazining ijobiy yoki salbiyligida yana o'sha shaxsni o'rab turgan tashqi muhit, o'zgalar va ularning munosabati katta ro'l o'ynaydi. Odam o'zgalarga qarab, go'yoki oynada o'zini ko'rganday tasavvur qiladi. Bu jarayon psixologiyada refleksiya deb ataladi. Uning mohiyati - aynan o'ziga o'xshash odamlar obrazi orqali o'zi to'g'risidagi obrazni shakllantirish, jonlantirishdir. Refleksiya «Men» - obrazi egasining ongiga taalluqli jarayondir. Masalan, ko'chada bir tanishingizni uchratib qoldingiz. Siz tinmay unga o'z yutuqlaringiz va mashg'ulotlaringiz haqida gapirmoqdasiz, lekin gap bilan bo'lib, uning qayergadir shoshayotganligiga e'tibor bermadingiz. Shu narsani siz uning betoqatlik bilan sizni tinglayotganligidan, xayoli boshqa yerda turganligini bilib qolasiz va shu orqali ayni shu paytda «mahmadona, laqmaroq» bo'lib qolganingizni sezasiz. Keyingi safar shu o'rtog'ingiz bilan uchrashganda, oldingi xatoga yo'l qo'ymaslik uchun «O'rtoq, shoshmayapsanmi?» deb so'rab ham qo'yasiz. Ana shu ilgarigi refleksiyaning natijasidir.Ya'ni suhbatdosh o'rniga turib, o'zingizga tashlangan nazar («men unga qanday ko'rinyapman?») – refleksiyadir Tarbiyaning asosi oila muhitidir. Bola uyda nimani ko'rsa, shunga taqlid qilib o'sadi. Oilada ota olijanob keng fe'l, bosiq, mulohazali va ozgina siyosatliroq bo'lishi, ona esa mehribon, rahmli, bolalarini behuda qarg'amaydigan va muloyim bo'lmog'i lozim. Farzandlarimizni sog'lom e'tiqodli, jismonan baquvvat qilib tarbiyalash ham ota-ona zimmasiga yuklangan. Oilaning har bir a'zosi millatningdavomiyligini saqlovchi milliy va umuminsoniy qadriyatlarning rivojini ta'minlovchi, ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni dunyoga keltirib tarbiyalovchi muqaddas makon ma'naviyat maskanidir.

Ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar. Bular ota-onalarning guruhiy va umumiy majlislar, ota-onalar maktabi, anjumanlar,shanbaliklar,savol-javob kechalari.

MTT da tarbiya jarayonini tashkil etish muammolari bo’yicha ota-onalarini an’anaviy yillik ilmiy- amaliy anjumani shakllantiriladi. Oila tarbiyasiga doir dolzarb

muammo aniqlab olinadi. MTT va oilada butun yil davomida uni nazariy va amaliy o’rganish amalga oshiriladi.Tarbiyachining ota-onalarga beradigan tavsiya va maslahatlari ishonalarni bo’lishi uchun ota-onalar yoki oilaning boshqa a’zolari MTTga taklif qilinadi. Bunda ota-onalar bolaning navbatchilik vazifasini qanday bajarayotganini yoki sayrga chiqishdan avval qanday kiyinayotganini ko’radilar va bolalarning o’quv va imkoniyatlariga ishonch hosil qiladilar.

Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni rang-barang bo’lib, unda ayrim masalalar birgalikda muhokama qilinishi taqozo etiladi. Masalan:

-Bolalarni tarbiyalashda oilaning roli, ota-onalarning vazifasi to’g’risidagi qonunlar, bolalarni maktabga tayyorlash haqida;

-MTT ning yillik ish rejasi to’g’risida;

-Ota-onalar jamoatchiligining ishi haqida.

Bu masalarni jamoa bo’lib muhokama qilish uchun ota-onalarning guruhi va umumiy majlislari,maslahatlar,konfirensiyalar, ota-onalar kechalari kabi ish shakllari jamoa ish shakllariga kiradi.Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi ota-onalar bilan olib boriladigan ishlar mazmuni:

Maktabgacha ta’lim tashkilotida bola tarbiyasining samarali bo‘lishi uchun ota-onalar bilan muntazam va tizimli hamkorlik olib borilishi muhimdir. Bola rivojlanishida oilaning o‘rni beqiyos bo‘lganligi sababli, tarbiyachi-pedagoglar ota-onalar bilan doimiy aloqada bo‘lib, ularni bolani har tomonlama rivojlantirish jarayoniga jalb etishadi.Bunday ishlar avvalo ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirishga qaratiladi. Bu maqsadda turli ma’rifiy suhbatlar, seminar-treninglar, psixologik maslahatlar, ma’ruzalar tashkil etiladi. Ularda ota-onalarga bolalar psixologiyasi, yosh xususiyatlari, individual yondashuv haqida tushunchalar beriladi.Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotida ota-onalar ishtirokida turli tarbiyaviy tadbirlar o‘tkaziladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkilotidagi ota-onalar bilan olib boriladigan ishlar — bu bolalar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, ikki tomonlama hamkorlikka asoslangan tizimli jarayondir. Bu hamkorlik bola uchun yagona tarbiyaviy muhit yaratishga xizmat qiladi.Shunday qilib, insonning shaxs bo'lib shakllanishida, hayotda o'z o'rnini topish, el-yurt ichida izzat-hurmatga sazovor bo'lishida oila asosiy poydevor hisoblanadi. Oila hayotning abadiyligini davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllarni qanday inson bo'lib etishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog' idir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Xolov Olimjon Chorshamiyevich. Umumiy pedogogika. O’quv qo’llanma. - Toshkent. “NIF MSH” , 2023. - 458 b.

2.Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna.Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi. Darslik. - Toshkent: “METODIST NASHRIYOTI” , 2024. - 324 bet.

3.X.J. Xudoyqulov, Z.R. Rasulova Oila pedagogikasi. O’quv qo’llanma. - Toshkent: “METODIST NASHRIYOTI” , 2023,188 b.

4. АКраМоВа Ф.А. "Оилада муомалани ташкил этиш психологияси" Т.: "Шамс АСА" 2006. 90-bet.